



RANGLI METALLURGIYANI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA BOSHQARUVI MEXANIZMLARINING O'RNI (O'ZBEKISTON SHAROITIDA)

Mirzayev Shoxrux

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi

ORCID: 0009-0009-3491-2634

shoxrux.mirzaev.86@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda rangli metallurgiya sanoatida loyiha boshqaruvi mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda loyihalarni samarali boshqarishning asosiy instrumentlari, ularning sanoat rivojiga ta'siri, hamda amaliy misollar orqali ularning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Maqolada Olmaliq kon-metallurgiya kombinati misolida loyiha boshqaruvining amaldagi jihatlari va natijalari ham tahlil etilgan. Taqdim etilgan taklif va tavsiyalar rangli metallurgiya sohasidagi loyiha faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: loyiha boshqaruvi, rangli metallurgiya, samaradorlik, sanoat, Olmaliq KMK.

РОЛЬ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗВИТИИ ЦВЕТНОЙ МЕТАЛЛУРГИИ (В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА)

Мирзаев Шохрух

Государственное унитарное предприятие

*«Центр комплексной экспертизы проектов и импортных контрактов»
при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан*

Аннотация. В данной статье анализируется значение механизмов управления проектами в цветной металлургии Узбекистана. В исследовании рассматриваются основные инструменты эффективного управления проектами, их влияние на развитие отрасли и эффективность на практических примерах. Также в статье анализируются практические аспекты и результаты управления проектами на примере Алмалыкского горно-металлургического комбината. Представленные предложения и рекомендации будут способствовать более эффективной организации проектной деятельности в сфере цветной металлургии.

Ключевые слова: управление проектами, цветная металлургия, эффективность, промышленность, Алмалыкск ий ГМК.

THE ROLE OF PROJECT MANAGEMENT MECHANISMS IN THE DEVELOPMENT OF NON-FERROUS METALLURGY (IN THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN)

Shoxrux Mirzayev

State Unitary Enterprise

*“Center for Comprehensive Expertise of Projects and Import Contracts”
under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *This article analyzes the importance of project management mechanisms in the non-ferrous metallurgy industry in Uzbekistan. The study examines the main instruments of effective project management, their impact on industrial development, and their effectiveness through practical examples. The article also analyzes the practical aspects and results of project management on the example of the Almalyk Mining and Metallurgical Combine. The presented proposals and recommendations will serve to more effectively organize project activities in the field of non-ferrous metallurgy.*

Keywords: *project management, non-ferrous metallurgy, efficiency, industry, Almalyk MMC.*

Kirish.

Rangli metallurgiya — metallurgiya sanoatining yetakchi tarmogʻi boʻlib, u ruda konlarini qazish, rudalarni boyitish, rangli, nodir va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish hamda qayta ishlash, ularning qotishmalarini tayyorlash jarayonlarini oʻz ichiga oladi. Bu tarmoqda, shuningdek, prokat, presslangan buyumlar, qattiq qotishmalar, metall kukunlar, turli tuz va birikmalar, kimyoviy oʻgʻitlar va qurilish materiallari kabi yoʻldosh mahsulotlar ham ishlab chiqariladi. Ushbu mahsulotlar xalq xoʻjaligining barcha sohalarida keng qoʻllanilib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qoʻshadi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston iqtisodiyotida rangli metallurgiya sohasi muhim strategik oʻrin tutmoqda. Bu sohadagi korxonalarining samarali faoliyati mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish, ilgʻor texnologiyalarni joriy etish va sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida juda qulay tabiiy-geografik sharoitga ega mamlakat boʻlib, yer osti boyliklariga boy. Respublikamizda konchilik va metallurgiya sanoati yildan yilga jadal rivojlanib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy chiqishlarida mamlakatning tabiiy resurslar salohiyati alohida taʼkidlangan (Prezident, 2022): *“Oʻzbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega davlatdir.”*

Xususan, Olmaliq hududi qadimdan konchilikka ixtisoslashgan zamin sifatida mashhur. Eramizning IX–XII asrlariga taalluqli koʻplab qadimiy topilmalar va ruda qazib olish izlari bu hududda qadim zamonlardan boshlab mis, qoʻrgʻoshin, rux, oltin, kumush, temir, ametist, feruza va boshqa qazilmalar faol qazib olinganini koʻrsatadi.

Oʻzining 70 yildan ortiq tarixi davomida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishga munosib hissa qoʻshib kelayotgan “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ (*keying oʻrinlarda – Omaliq KMK*) Oʻzbekistondagi eng yirik sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi. Kombinatning ishlab chiqarish quvvati asosan Toshkent, Jizzax, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida joylashgan mis-molibden, qoʻrgʻoshin-rux, oltin va kumush konlariga asoslanadi. Ona zaminimiz bagʻridagi nodir, rangli va qimmatbaho metallarni qazib olish hamda qayta ishlashga ixtisoslashgan ushbu korxonalaridan olinadigan maʼdan tarkibida Mendeleev davriy jadvalidagi elementlarning deyarli barchasi mavjud.

Bugungi kunda Omaliq KMKni jadal rivojlantirish maqsadida koʻplab yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarni samarali boshqarish quyidagi xususiyat va omillarni inobatga olgan holda maxsus yondashuvni talab etadi:

- uzoq muddatli amalga oshirish davrlari va strategik rejalashtirish;
- kapitalning yuqori zichligi va byudjetni boshqarish zarurati;
- resurslar, jumladan, kadrlar va texnologik cheklovlar;
- bozor omillarining noaniqligi (metall narxlarining o'zgarishi, soliqqa tortish va qonunchilikdagi yangiliklar);
- global iqtisodiy tendensiyalar va ekologik standartlarning ta'siri;
- barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro talablarni hisobga olish zarurati;
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va IoT kabi ilg'or texnologiyalarni joriy etish ehtiyoji;
- xalqaro metall bozorlaridagi raqobatning kuchayishi;
- ekologik toza texnologiyalar va energiya sohasidagi global talabning o'zgarishi.

Shu bois, rangli metallurgiya sohasida investitsion loyihalarni samarali boshqarish mexanizmlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va takomillashtirish tarmoqning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada O'zbekistonda rangli metallurgiya rivojida loyiha boshqaruvi mexanizmlarining o'rni tahlil qilinadi, amaldagi yondashuvlar, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish orqali yuritiladi. Bu jarayonda asosiy masala – sarflangan mablag'larning qay darajada samara berishi va ularning iqtisodiy jihatdan oqlanishi hisoblanadi. Shu bois, qaror qabul qiluvchi shaxslar investitsiya loyihalarini baholashda zamonaviy hisob-kitob usullariga ega bo'lishi zarur (Qaror, 2022).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25 iyuldagi PQ-332-son Qarorida investitsiya va infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi belgilangan bo'lib, u mamlakatda loyiha boshqaruvining institutsional asoslarini mustahkamlaydi (Qaror, 2022). Shu bilan birga, 2022-yil 28 yanvardagi PQ-60-sonli Qarorda 2022–2026 yillarda sanoatni rivojlantirish strategiyasi belgilanib, unda metallurgiya tarmog'ini jadal rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan (agmk.uz, n.d.).

2023-yil 9 fevralda qabul qilingan PQ-57-sonli Prezident qarori esa rangli metallurgiya sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilab, sohada yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun huquqiy va tashkiliy shart-sharoit yaratdi (Qaror, 2023). Shu bilan birga, mahalliy olimlar ham sohaning istiqbollarni o'rgangan. Xususan, Axmedov (2023) o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda rangli metallurgiya sanoatining rivojlanish istiqbollarni iqtisodiy va texnologik jihatdan tahlil qiladi, Jurayev (2024) esa rangli metallurgiyada investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmlarini tahlil qilib, samarali tashkiliy modellarni taklif etadi.

Loyiha boshqaruvi sohasida xalqaro standartlar keng qo'llaniladi. PMBOK (2021) va PRINCE2 (2020) kabi standartlar loyihalarni rejalashtirish, monitoring va nazorat qilish jarayonlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Bundan tashqari, Project Management Institute hamda PRINCE2 metodologiyalari risk-menejment, resurslar taqsimoti va strategik rejalashtirishda samarali yo'nalishlarni belgilaydi. Axundov va Tuxliyevning (2019) "Loyiha boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti" asarida esa milliy sharoitda loyiha boshqaruvi nazariyasi va metodologiyasiga oid ilmiy-nazariy asoslar berilgan.

Jahon bankining "Sustainable Finance and Mining Investments" (2021) hisobotida esa barqaror moliyalashtirish, ESG standartlari (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillari)ni qo'llash hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning talablari tahlil qilingan. Shu jihatdan, rangli metallurgiya sohasidagi loyihalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda ESG omillari muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, xalqaro tadqiqotlar iqtisodiy beqarorlik sharoitida boshqaruv usullarini o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashtirish va moslashuvchan strategiyalardan foydalanish zarurligini tasdiqlaydi (Goncharov, 2020).

Mahalliy tadqiqotchilardan Rasulov (2022) metallurgiya sohasida loyiha boshqaruvini takomillashtirish yo'llarini, Temirov (2023) esa rangli metallurgiya tarmog'ida rivojlanish istiqbollari ko'rsatadi. Japarov (2022) esa metallurgiya loyihalarida zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilib, raqamli texnologiyalarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, sohadagi amaliy tajriba ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Olmaliq KMK rasmiy manbasida joriy investitsiya loyihalari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan (agmk.uz, n.d.).

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish investitsiya loyihalarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, investitsiya faoliyati subyektlarida har doim savol tug'iladi: loyihaga pul qo'yish kerakmi va u uni amalga oshirish xarajatlarini qoplash imkonini beradigan daromad keltiradimi? Shuning uchun vaziyatni adekvat baholash uchun qaror qabul qiluvchi va uning oqibatlarini baholovchi shaxslar amaliy investitsiya hisob-kitoblarining asosiy tushunchalari va usullarini bilishlari kerak (Baytasov, 2012).

Loyihalarni boshqarish metodologiyasining tuzilishi yetakchi tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlarga asoslanadi. Ular qatoriga mantiqiy-tuzilmaviy, tizimli va integratsiyalashgan yondashuvlar kiradi. Metodologiya shuningdek, loyihalarni boshqarish usullarini ham qamrab oladi, jumladan: tuzilmalashtirish, tarmoqli rejalashtirish, o'zlashtirilgan hajm usuli hamda boshqa ko'plab usullar (loyihalarni boshqarish bilimlarining turli sohalarida qo'llaniladigan). Bundan tashqari, u loyihalarni boshqarish modellari, shu jumladan tashkiliy boshqaruvning yetuklik modellari va loyihalarni boshqarish standartlarini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, turli darajadagi loyihalar, dasturlar va loyiha portfellari (global, xalqaro, milliy, tarmoq) hamda xususiy metodologiyalar (korporativ va tarmoq)ni ham qamrab oladi (Ilyina, 2015).

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rangli metallurgiyani rivojlantirishda loyiha boshqaruvi mexanizmlarini o'zlashtirish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki butun tarmoqning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar ko'proq texnik-iqtisodiy jihatlarni yoritadi, ammo O'zbekiston sharoitida boshqaruv tizimlari, risklarni baholash va manfaatdor tomonlar bilan ishlash mexanizmlariga oid ilmiy ishlanmalar yetarli darajada rivojlanmagan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilmiy va amaliy manbalar tahlili O'zbekiston rangli metallurgiya sanoatida investitsiya loyihalarini boshqarishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. Bu jarayonda xalqaro loyiha boshqaruvi standartlari, ESG talablari va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuningdek, milliy qonunchilik va strategik qarorlar sohani rivojlantirishda asosiy huquqiy va institutsional baza sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot rangli metallurgiya sohasida investitsion loyihalarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan. Metodologik asos sifatida quyidagi yondashuvlar qo'llanildi:

1. *Tahliliy yondashuv* – O'zbekiston rangli metallurgiya sanoatining hozirgi holati, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, investitsiya oqimlari va eksport salohiyatini baholash uchun statistik va iqtisodiy ma'lumotlar tahlili.

2. *Qiyosiy tahlil* – loyihalarni boshqarish bo'yicha milliy va xalqaro tajribalarni solishtirish, ilg'or amaliyotlarni aniqlash.

3. *Ekspert baholash* – sanoat mutaxassisleri va loyiha menejerlari bilan suhbatlar asosida amalga oshirildi asosida mavjud muammolar va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash.

4. *Normativ-huquqiy tahlil* – rangli metallurgiya sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni o'rganish.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

“Yashil iqtisodiyot”ga, ekologik toza energiya manbalari va mahsulotlarga o'tish davrida rangli metallar, jumladan, mis va undan tayyorlangan mahsulotlarga bo'lgan talab jadal o'sib bormoqda. O'zbekiston rangli metallarning katta zaxirasiga ega bo'lgani uchun o'z qiyosiy ustunliklaridan foydalanishga intiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda rangli metallarni qazib olish, qayta ishlash va ulardan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda. Rangli metallurgiya tarmog'iga iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida qaraladi.

Rangli metallarning katta zaxirasi ularni qazib olish, qayta ishlash va ulardan tayyorlangan mahsulotlar eksportini o'stirishga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Shu bois ushbu sektorda islohotlarni amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda rangli metallurgiya iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakat eksport salohiyatini oshirishda va sanoatni diversifikatsiya qilishda muhim o'rin tutadi. Rangli metallurgiya sohasida amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalar, jumladan, mis, rux, qo'rg'oshin, oltin va boshqa qimmatbaho metallarni qazib olish va qayta ishlash jarayonlari davlatning sanoat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanadi.

Loyiha boshqaruvi mexanizmlari ushbu sohada samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro tajribada loyiha boshqaruvi metodologiyalari (PMBOK, PRINCE2 va boshqalar) metallurgiya sanoatida risklarni kamaytirish, muddatlarni qisqartirish hamda sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun keng qo'llanadi.

O'zbekiston sharoitida loyiha boshqaruvi mexanizmlarining joriy etilishi asosan quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Huquqiy-me'yoriy baza — investitsion va sanoat loyihalarini amalga oshirish tartibini belgilovchi Prezident qarorlari va hukumat qarorlari.

2. Moliyaviy mexanizmlar — davlat byudjeti, tijorat banklari, xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan loyihalarni moliyalashtirish.

3. Tashkiliy mexanizmlar — loyiha ishtirokchilari o'rtasida aniq mas'uliyat taqsimoti va koordinatsiya tizimining shakllantirilishi.

4. Innovatsion texnologiyalar — qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida zamonaviy texnika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish.

So'nggi yillarda O'zbekistonda rangli metallurgiya sohasida “Olmaliq KMK” AJ, “Navoiy KMK” AJ va boshqa korxonalar tomonidan amalga oshirilgan yirik modernizatsiya va kengaytirish loyihalari misolida loyiha boshqaruvi mexanizmlarining samaradorligi amalda tasdiqlanmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali loyiha boshqaruvi nafaqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini oshiradi, balki ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda Olmaliq KMK tomonidan “Yoshlik I” konini o'zlashtirish investitsion loyihasi amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-4731-sonli qaroriga muvofiq loyiha quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilangan.

I bosqichda:

2020 — 2024-yillarda karyer qurish, shuningdek, yiliga 60 mln tonna ruda qazib olish va qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan 3-son mis boyitish fabrikasi obyektlarini hamda infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish, uskunalarni yetkazib berish va qurish bilan birga

geologik qidiruv va konni o'zlashtirish bo'yicha kon-kapital ishlarining birinchi navbatini amalga oshirish;

2021 — 2025-yillarda yillik ishlab chiqarish hajmini 290 ming tonna katod misi, 38 tonna oltin va 203 tonna kumushga yetkazgan holda, metallurgiya kompleksi obyektlarini loyihalashtirish, uskunalarni yetkazib berish va qurish ishlarining ikkinchi navbatini amalga oshirish.

II bosqichda:

2022 — 2027-yillarda geologik qidiruv va konni o'zlashtirish bo'yicha kon-kapital ishlari, karyerni kengaytirish, shuningdek, yiliga 50 mln tonna ruda qazib olish va qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan 4-son mis boyitish fabrikasi obyektlarini hamda infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish, uskunalarni yetkazib berish va qurish;

2024 — 2028-yillarda yillik ishlab chiqarish hajmini 400 ming tonna katod misi, 50 tonna oltin va 270 tonna kumushga yetkazgan holda, metallurgiya kompleksi obyektlarini loyihalashtirish, uskunalarni yetkazib berish va qurish ko'zda tutilgan.


Olmalik KMK rivojlanish strategiyasiga ko'ra, "Yoshlik I" konini o'zlashtirish" (I bosqich, birinchi navbat) investitsiya loyihasining TIAsi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 18-maydagi 266-son qarori bilan tasdiqlangan.

2025-yil 1 iyul holatiga ko'ra doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

228,4 mln m³ dan ortiq (shu jumladan yil boshidan 17,1 mln m³) kon yuzasini ochish ishlari bajarildi. Ishlar 2 smenada tashkil etilib, 1 800 nafar ishchi-xodim va 400 ta texnika jalb etildi;

602 tadan ortiq (466,0 mln. dollar) kon texnikasi (54 ta 130 tonnalik, 29 ta 220 tonnalik BelAZ va 5 dona NMT-240 TEREK-KRANTAS 220 tonnalik samosvallari, 33 ta ekskavator, 23 ta burg'ilash uskunasi, 12 ta aralashtirish-zaryadlash mashinalari) 285 ta temir yo'l texnikasi (1 ta elektrovoz, 5 ta teplovoz, 212 ta dumpkar, 7 ta yo'l qurish texnikasi) shuningdek 192 ta yordamchi texnika) xarid qilindi.

Olmalik KMK 2025-yil I yarim yillik natijalari quyidagi rasmlarda keltirilgan.




1-rasm. 2025-yilning I yarim yilligida asosiy ko'rsatkichlarning bajarilishi (foizlarda, %)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi VMQ-53-sonli qaroriga muvofiq Olmalik KMK bo'yicha umumiy qiymati 13 586,7 mln dollar bo'lgan 9 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu mablag'larning manbalari quyidagicha taqsimlangan:

- O'z mablag'lari hisobidan – 3 798,5 mln dollar;

- O'zRBF hisobidan – 217,1 mln dollar;
 - Tijorat banklarining kreditlari hisobidan – 22,1 mln dollar;
 - To'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar - 9 549,0 mln dollar.
- 2025-yilda 869,2 mln dollar mablag' o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan, jumladan:
- O'z mablag'lari hisobidan – 269,0 mln dollar;
 - To'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar - 600,2 mln dollar.



2-rasm. 2025-yil I yarim yillik davomida tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish (mlrd so'mda)

1-jadval

2025-yil 1 chorakda Olmaliq KMK tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha MA'LUMOT

№	Loyiha nomi	Loyihaning umumiy qiymati (mln. dollar)	Loyiha quvvati	Amalga oshirish muddati	2025-yil uchun o'zlashtirish rejasi (mln. dollar)
1	"Yoshlik-I" konini o'zlashtirish (I bosqich)	4620,4	60 mln tonna mis-molibden rudasi	2017-2025yy.	246,6
2	"Yoshlik-I" konini o'zlashtirish (I bosqich, ikkinchi navbat) doirasidagi yangi metallurgiya zavodini qurish	2550,0	300 ming tonna mis katodi	2021-2027yy.	250,5
3	"Yoshlik-I" konini o'zlashtirish (II bosqich, birinchi navbat) 4-Mis boyitish fabrikasi (4-MBF) va infratuzilma obyektlarini qurish	5300,0	60 mln tonna mis-molibden rudasi	2024-2028yy.	120,0
4	"Olmaliq KMK" AJ ning asosiy ishlab chiqarish quvvatlarini qayta qurish va barqarorlashtirish dasturi	458,6	faoliyatni barqarorlashtirish	2018-2025yy.	57,0
5	Xandiza konining +1280 +880m gorizontlar oralig'ida zahiralarni ochish va tayyorlash	102,8	650 ming tonna ruda	2023-2028yy.	7,2
6	Pop tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish	220,0	500 MVt	2024-2027yy.	100,0
7	"Yoshlik-I" konini o'zlashtirish (I bosqich, ikkinchi navbat) doirasidagi yangi ohak zavodini qurish	99,9	737 ming tonna ohak	2023-2025yy.	47,9
8	"Olmaliq KMK" AJ tomonidan o'z ehtiyojlari uchun quvvati 150 MVt quyosh foto elektr stansiyasini qurish	212,0	150 MVt	2024-2025yy.	30,0
9	"Olmaliq KMK" AJ bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar tashlil etish	23,0		2023-2025yy.	10,0

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston rangli metallurgiyasi rivoji kontekstida loyiha boshqaruvi mexanizmlari haqida adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadi:

- Institutsional yondashuv — Project Office va strategik konsultatsiyalar loyihalarni kompleks boshqarish mexanizmlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.
- Kadrlar va raqamli transformatsiya — Muhandislik maktabi orqali kadrlar salohiyatini oshirish va raqamli yondashuvlarni joriy etish sanoat sohasida murakkab loyihalarni boshqarishda zarur.
- Investitsion tashabbuslar — Mis, oltin, kumush ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, klasterlar va yangi mahsulotlar ishlab chiqish kabi investitsion loyihalar shu kontekstdagi amaliy maydon hisoblanadi.
- Sanoat siyosati va strategiya — Prezident qarorlarida belgilangan vazifalar loyiha boshqaruvi mexanizmlarining samaradorligini ta'minlashga to'g'ridan-to'g'ri bog'langan.
- Tarixiy tahlil — O'zbekiston sanoatining tarixiy rivojlanish bosqichlari tarixiy rivoji, investitsion salohiyat va strategik yo'nalishlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

agmk.uz (n.d.) Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (n.d.) Rasmiy veb-sayt. Available at: <https://agmk.uz>

Ahmedov, A. (2023) 'O'zbekistonda rangli metallurgiya sanoatining rivojlanish istiqbollari', *O'zbekiston sanoat iqtisodiyoti jurnali*, (4)

AXELOS (2020) PRINCE2® Foundation Manual. London: AXELOS Global Best Practice.

Axundov, A.R. va Tuxliyev, I.S. (2019) *Loyiha boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot.

Baytasov, R.R. (2012) *Investitsionnoe proektirovanie. Kurs lektsiy*. Saarbrücken: LAP LAMBERT Academic Publishing.

Goncharov, V. (2020) *Ekonomicheskaya otsenka investitsionnykh proyektov*. Moskva: INFRA-M.

Ilyina, O.N. (2015) *Metodologiya upravleniya proektami: stanovlenie, sovremennoe sostoyanie i razvitie*. Moskva: Vuzovskiy uchebnyk, NITs INFRA-M.

Japarov, S.A. (2022) 'Metallurgiya loyihalarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar', *Fan va texnologiya jurnali*, (4).

Juraev, B. (2024) 'O'zbekiston rangli metallurgiya sanoatida investitsion loyihalarni boshqarish mexanizmlari', *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (1).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) 2022–2026 yillarda sanoatni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida PQ–60-son Qaror. 28-yanvar. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ–332-son Qaror. 25-iyul. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023) Rangli metallurgiya sanoatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ–57-son Qaror. 9-fevral. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Project Management Institute (2021) PMBOK® Guide. 7th ed. Newtown Square, PA: PMI.

Rasulov, Sh. (2022) 'Metallurgiya sohasida loyiha boshqaruvi tizimining takomillashtirish yo'llari', *Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy axborotnomasi*, (2).

Temirov, B.B. (2023) 'O'zbekiston rangli metallurgiya sanoatini rivojlantirish istiqbollari', *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (3).

World Bank (2021) *Sustainable Finance and Mining Investments*. Washington, DC: World Bank.